

MAQOLLARNING HAJVIY ASARLARDA KULGI QO'ZG'ASHDAGI O'RNI

Mavlonova Oyjamol Kozimjon qizi

Andijon davlat universiteti

Lingvistika mutaxassisligi magistranti

Telefon: +998 91 482 42 21

Annotatsiya: *ushbu maqolada maqollarning hajviy asarlarda kulgi qo'zg'ash, obrazlarni jonlantirish va ijtimoiy illatlarni tanqidiy yoritishdagi o'rni tahlil qilinadi. Xalq og'zaki ijodining muhim unsurlaridan biri bo'lgan maqollar hazil-mutoyiba, kinoya, mubolag'a kabi badiiy vositalar bilan qo'shilganda hajvning ta'sirchanligini kuchaytirishi ilmiy asosda izohlanadi. Adabiyotdagi ayrim hajviy namunalar misolida maqollarning satirik mazmun yaratish, kulgi orqali tarbiyaviy g'oya yetkazish, jamiyatdagi kamchiliklarni yumor bilan fosh etishdagi funksiyalari ochib beriladi. Shuningdek, maqollardan foydalanish hajviy asar tilini xalqona, sodda va ta'sirchan qilib, o'quvchining esda qolish darajasini oshirishi ko'rsatib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *maqol, hajv, satira, yumor, xalq og'zaki ijodi, kulgi, badiiy vosita, kinoya, mubolag'a, hajviy asar, obraz, tanqid, tarbiyaviy g'oya.*

O'zbek xalq maqollari necha zamonlar osha bizning nutqimizni boy, serma'no, rang-barang bo'lishiga hissa qo'shib kelmoqda. Adabiy merosimizni esa badiiy va obrazga boy mulohazalardan tarkib topgan hikmatli so'zlarsiz, ya'ni maqollarsiz tasavvur qila olmaymiz. Axir xalqimiz bejizga: "Otalar so'zi – aqlning ko'zi", - deyishmaydi-da. Darvoqe, turk tilida maqol atamasi o'rniga "Ata so'zi", ya'ni "Otalar so'zi" atamasi ishlatilishi bejiz emas. Umuman olganda, maqol deb xalqning ijtimoiy-maishiy, tarixiy tajribasi umumlashgan obrazli fikrlar tizimidan iborat hikmatli so'zlarga aytiladi. Folklorshunoslikning bir turi sifatida "maqol – ixcham, nutqqa tayyor olib kiriluvchi (barqaror), ritmik uyushgan so'zlardir". O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov: "Hikmatli so'zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko'prikdir", - deya xalq maqollariga judayam chiroyli ta'rif beradi.

Maqollar nafaqat hikoya-romanlarning, doston-u she'rlarning jozibador bo'lishida muhim rol o'ynaydi, balki kulgili asarlarning yaralishida ham maqollarning xizmati katta. Xususan, tahlil uchun Habib Siddiq hajviyalariga murojaat etadigan bo'lsak, hangomalarda, hajviyalarda, qatralar-u tarjimalarida ham ushbu hikmatli so'zlardan serunum foydalanganining guvohi bo'lamiz.

Maqol – xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrazsiz, Grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli birlik sanaladi. Muayyan aniq shaklga ega, ularda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, muxtasar va jo'n poetic shaklga kelgan. Maqol

uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolilik, majoziy ma'nolarga boylik kabi xususiyatlar xarakterlidir. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati g'oyat katta. Odatda, maqolda to'la tugallangan fikr-xulosa ifoda etiladi.

Yozuvchi o'z hajviy hikoyalarida turli xil o'rinlarda kulgili tasvirlar yaratishda hamda voqealar rivojini hajviy bayon etishda ushbu barqaror birliklarni ishlatadi: Masalan, “Ota-onalar yig'ilishi” hajviyasida:

“... Hov, Saidovaning dadasi, siz nimadan yordam qilasiz?

- Bilmadim.

- Nega? Qayerda ishlaysiz o'zi?

- Zavodda...

- Bizga remontga ketadigan nima borsizlarda? Hech bo'lmasa mix bordir, axir. Olib kelavering. “Topgan gul keltirar, topmagan - bir bog' piyoz”. Hi-hi-hi...” Mazkur parcha orqali o'qituvchining maktab ta'miri uchun “jon kuydirayotgani” ni tasvirlashni maqsad qilgan adib ustozning “Topgan gul keltirar, topmagan - bir bog' piyoz” maqolini keltirish orqali ota-onalardan ta'mir uchun nima bo'lishidan qat'i nazar biror narsa tama qilayotganini bayon qiladi va bu orqali asar o'qiyotgan o'quvchining yuzidagi tabassumiga hissa qo'shadi. Ushbu maqolning ma'nosi: topgan odam (imkoniyati bor inson) gul (yaxshiroq, ko'zga ko'rinarliroq narsa olib keladi; topmagan (imkoniyati cheklangan inson) esa piyoz (qo'liga nima kirsam – arziydimi yoki arzimaydimi olib keladi. Bu maqolda qo'llanayotgan “Gul” va “Piyoz” so'zlari istioraviy jihatdan gul – yaxshiroq, qimmatroq narsani; piyoz esa arzimam narsa ma'nosida qo'llanmoqda.

Yoki yana boshqa misol: “Tushungan odam” hikoyasida yozilishicha, “...Darvoqe, o'zingizniyam kimoshdi savdosida olib qo'ygan “Moskovich”ingiz ham yotibdi anchadan beri. Tiklab sotvorish uchun ancha-muncha ehtiyot qismlari kerak. Og'zimizni ochib o'tirganimiz bilan biron “Ma, manovini op qo'y” demaydi. Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zibdi deganlariday... Siz menga ikki enlik qog'oz qilib bersangiz bo'ldi, yantoqni tuyaga qarab intiladigan qip tashlayman...” Tepadagi ushbu suhbat orqali “Ehtiyojga qarab harakat qiladi” gapining o'rniga “Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zibdi” maqolini kiritadi va obrazli tasvirni yanada kuchaytirib, ta'kidlab ko'rsatadi. So'zma-so'z tahlil qiladigan bo'lsak, “Tuyaga yantoq kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zadi” maqoli kimga nima kerak bo'lsa, o'zi harakat qilishi kerak mazmunini bermoqda. Barchamiz bilamizki, tuya bu asosan cho'lda yuradigan hayvon hisoblanadi, bu hayvon sabrliligi bilan ham barchaning e'tiborini tortadi. Yantoq ham cho'l o'simligi sirasiga kiradi. Qachonki, tuyalarning qorni ochgan paytlari sahroda boshqa o'simliklar kamdan kam o'sganligi bois, ko'pincha yantoq yeyishadi, va buning uchun bo'ynlarini pastga cho'zib oziqlanishadi. Aynan xuddi shujihatdan ham tuyaga ovqat kerak bo'lsa, bo'ynini cho'zib ovqatlanadi. Ushbu hayotiy misol maqolga ko'chgan va ijodkor ushbu maqolni bejiz bu o'rinda ishlatmaydi. Hajviya qahramoni Qurbonov xo'jayinining “Ishlar qalay?” – savoliga chakagi ochilgan holda javob qaytaradi. Bu o'rinda Qurbonovning sabrliligiga ishora bor, ya'ni xo'jayin o'zi savol so'ramasidan oldin “mum tishlagandek”

yuraveradi – savolidan keyin gina ichidagi barcha muammolarini to'kib sochadi. Yantoq so'zi esa istioraviy ma'noda xo'jayin yozib bergan yorliqni ifodalaydi. Ijodkor ushbu maqolni keltirish orqali nafaqat kulgi qo'zg'aydi, balki jamiyatdagi o'z mansabidan foydalanib “yeb yotgan, xalqni talayotgan” ochko'z insonlarga ishora qiladi.

Bundan tashqari, yozuvchi “Savol” nomli hajviyasida ham mazmun va ma'no ko'lamini jihatidan yuqoridagi hajviyaning mantiqiy davomi desak arziydigan xalq hikmatli so'zini qo'llaydi:

- Oyi, kolxozimizning avvalgi boshliqlari sehgarmidilar?
- Bolajonim, nimaga unaqa deysan?
- Dadamlar aytdilar-ku: “Tuyani yutishsa, dumini ko'rsatishmasdi” deb.

Ushbu hikoyada kolxoz boshliqlarining poraxo'r, tamagir, yeb to'yimas ekanligini birgina “Tuyani yutishsa, dumini ko'rsatishmasdi” maqoli orqali ifodalab hajviyaning ta'sir kuchini bo'rttiradi, bevosita o'quvchida kulgi qo'zg'atadi. “Tuyani yutishsa, dumini ko'rsatishmasdi” maqolida ham bosh obraz “tuya” hisoblanadi, ammo bu maqolda “tuya” so'zi “sabrli inson”ni emas, balki “boylik, mol-mulk” semalarini yuzaga chiqaradi. Raislar, kolxoz rahbarlari yeb to'yimaslik jihatida shu darajada ochko'zki, hattoki tuya kabi katta hayvonchalik xalq mulkini ayovsiz o'zlashtirishga qodir, lekin tuyaning dumichalik kichik joyini ham bironvga bildirishmaydi. Tuya hajm jihatdan ham aksar hayvonlardan ulkan hisoblanadi, tuyaning dumiga kelsak esa ko'plab hayvonlarning dumidan kichkina, ya'ni xalqimizda bir ibora bor: “Tuyani dumi yerga tekkanda”, degan. Ushbu iborada ham tuyaning dumi hech qachon yerga tegmasligi aniq, chunki tuyaning umumiy hajmiga qaraganda dumi ancha kichik hisoblanishi yaqqol namoyon bo'ladi. Yuqoridagi hajviyada esa katta-katta mol-dunyoni o'ziniki qilib olayotgan “Yeb to'yimas” raislar-u boshliqlarning o'z ishlarini uchini ham chiqarmasligi maqol yordamida teran aks ettirilgan.

“Dunyoda gaplar ko'p” nomli hajviyada:

- Yiqitishdi, enag'arlar.
- Nimadan?
- Imtihondan-da
- Qaysi fandan demoqchisan?
- Ximiyadan
- Tayyorgarligi durustmidi?
- E-e, rosa o'qigan. Yo zaring, yo zo'ring bo'lsin ekan. Bizga o'xshagan kolxozchining bolasini olmaydi, shekilli, bu enag'arlar!

Hajviyada keltirilgan “Yo zaring, yo zo'ring bo'lsin” maqoli ijtimoiy hayotdagi “tanish-bilishchilik va poraxo'rlik”ni anglatib turgani ma'lum. Ushbu maqolda uyushgan bo'lak hisoblangan “zar” va “zo'r” so'zlari ega vazifasida kelmoqda. Aynan “zar” deganda “boylik”ni, “zo'r” deganda esa biror yuqori lavozimda ishlaydigan xoh qarindosh, xoh tanish bo'lsin, nazarda tutilmoqda, ya'niki “zar” so'zi istioraviy jihatdan “poraxo'rlik”ni bildirsa, “zo'r” so'zi esa “tanish-bilishchilik”ni ifodalab kelmoqda. Ammo hajviyada o'zini bechora qilib ko'rsatayotgan “kolxozchi” aslida haq bo'lib

chiqmasligi hajviyada kulgiga asos bo'ladi, ya'ni dehqonning gapidan keyin uning o'g'lini hikoyachi imtihon qilib ko'radi:

- Qaysi kitoblardan tayyorlangan edingiz?
- ...
- Ximiya fani nimani o'rganadi?
- ...
- Osh tuzining formulasini ayting-chi?
- ...
- Suvning formulasini bilarsiz?

Dehqonning bolasi ushbu savollardan birortasiga ham javob bera olmaydi, qop-qora mushti bilan burnini artgancha jo'nab qoladi. Bu holatdan mulzam bo'lgan ota esa ko'zlari olayib, hijolatli tarzda suhbatdoshiga:

- Iye, vey, tuz bilan suvniyam formulasi bormi?..Voo, dunyoda hali biz bilmagan gaplar ekanda-a? deya yuzlanadi. Ushbu hajviyani tahlil qilar ekanmiz, yuqorida keltirilgan "Yo zaring, yo zo'ring bo'lsin ekan" maqoli dehqonning "bechora" holatini anglatish ma'nosida qo'llanib kelmoqda va hajviya so'ngida esa kolxozchining chindan ham "bechora" emasligi anglashilib asarda kulgi yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, maqollar personaj nutqida qo'llanganda ularning xarakteriga mos tabiiylik, xalqona ohang va jonlilik bag'ishlaydi. Bundan tashqari, maqollar asar tilini sodda va ta'sirchan qiladi, o'quvchining e'tiborini muayyan g'oyaga aniqroq yo'naltiradi. Hajviy asarlar uchun xos bo'lgan mubolag'a, istehzo, kinoya kabi uslublar maqollar bilan uyg'unlashganda kulgi kuchi yanada oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Habib Siddiq. Inglizchatush. – Toshkent, 2010. B.109.
2. Habib Siddiq. Bedavodardningdavosi. – Toshkent, 2004. B. 98.
3. Do'smatov H. Askiyamatnilingvostilistikasi. – Toshkent: Fan. 2015. B. 221.
4. Винокур Г.О. О языке Художественной Литературы. – Москва, 1991. – 448 С.
5. Аврорин В.А. Проблемы Изучения Функциональной Стороны Языка. – Ленинград, 1975. – 275 С.
6. Kosimovna Ar. On The Role And Importance Of Stylistics In Linguistics. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. 2022;12(4):206-8.
7. Abdurakhmanova, R. K. (2015). Hermeneutical And Pragmalinguistic Category Of The Deixis. *Наука И Мир*, (10-2), 10-12.
8. Kosimovna, A. R. Udk: 81.39 Paradigmatic Properties Of Deictic Units In The Text.
9. Abdug'afforovna, Q. D. (2024). Boburiylar Davrida Adabiyotga Bo'lgan E'tibor. *American Journal Of Multidisciplinary Bulletin*, 2(4), 71-75.
10. Madaminovich, T. X. I., Samariddinovich, S. S., Shavkatovna, R. G., Agil, N., Koşmak, F., & Cuma, A. Tahririyat Kengashi.